

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.Fil.46.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

SHOMURODOVA MAFTUNA UBAYDULLOYEVNA

**SADRIDDIN AYNIY – O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI
TADQIQOTCHISI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Content of Dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on Philological sciences**

Shomurodova Maftuna Ubaydulloyevna Sadriddin Ayniy – o‘zbek mumtoz adabiyoti tadqiqotchisi	3
Shomurodova Maftuna Ubaydulloyevna Sadriddin Ayniy – researcher of Uzbek classical literature	23
Шомуродова Мафтуна Убайдуллоевна Садриддин Айни – исследователь узбекской классической литературы	45
E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati List of published works Список опубликованных работ	49

**O'ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.Fil.46.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

O'ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

SHOMURODOVA MAFTUNA UBAYDULLOYEVNA

**SADRIDDIN AYNIY – O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI
TADQIQOTCHISI**

10.00.02 – O'zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Fil4576 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (peñome)) ilmiy kengashning veb-sahifaning www.tai.uz hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Rahmonova Zulayho Jamolovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Rasmiy opponentlar:

G'ayipov Dilshod Qadambayevich
filologiya fanlari doktori, professor

Fayzulloyev Baxtiyor Bobojonovich
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.Fil.46.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "19" sentabr soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:100060, Toshkent, Shahrizabz tor ko'chasi, 5. Tel.: (99871) 233-36-50; fax: (99871) 233-71-44; e-mail: uztafi@academy.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (71 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent, Ziyolilar ko'chasi, 13. Tel.: (99871) 262-74-58.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" _____ da tarqatildi
(2025-yil "___" _____ dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi).



[Handwritten signature]

B. To'xliyev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
filol.f.d., prof.

[Handwritten signature]

D. Asqarov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
filol.f.b.f.d.

[Handwritten signature]

U. Hamdamov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi,
filol.f.d., prof.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida ijodkor hayoti va ijodi, badiiy asarlarni o'rganish va tadqiq etishning asos hamda usullarini belgilash hamisha dolzarb mavzulardan sanalgan. Zero, adabiy shaxsiyat hamda asarning shakl va mazmuni milliy-badiiy tafakkur, an'analar, tarixiy davr, e'tiqod uyg'unligida dunyoga keladi. Adabiyotshunoslikdagi yirik tadqiqotlarni yaratish, shubhasiz, qomusiy bilim va katta tajribani talab qiladi. Shu bois ulkan davr ma'naviyatiga daxldor izlanishlar olib borgan olimlarning ma'naviy merosi, ilmiy-nazariy qarashlari mohiyati, asl manba va qo'lyozmalarga asoslangan mustahkam xulosalarga ega boy tadqiqotlari hamda uslubi xususidagi izlanishlar muttasil ortib bormoqda.

Dunyo adabiyotshunosligi o'tmish olimlarning tadqiqotlarini o'rganish orqali adabiyotshunoslikning yutuq va kamchiliklarini belgilash hamda ibratli jihatlarini o'zlashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Yetuk olimlar izlanishlarida tadqiq etilgan mavzu va tanlangan tamoyil mahorati, asarlar tahlili va talqinidagi yondashuvlar adabiyotshunoslik rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek adabiyotshunosligi ham o'zining paydo bo'lish tarixi va takomiliga ega. Albatta, bunda ko'plab zahmatkash olimlarning hissasi bor. Mana shunday adabiyotshunoslardan biri o'zbek va tojik tillaridagi ilmiy, badiiy, tarixiy va adabiy merosining salmog'i va nufuzi jihatdan ajralib turuvchi akademik – Ustod Sadridin Ayniydir. Darhaqiqat, "... milliy adabiyotlarimiz mumtoz namoyandalarimizning nomlari butun dunyoga ma'lum va mashhurdir. Bu birinchi navbatda Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Muhammad Haydar, Maxtumquli, Mirzo G'olib, Abay, Robindranad Tagor, Sadridin Ayniy, Chingiz Aytmatov ijodiga daxldordir. Ular o'lmas asarlari bilan jahon xalqlari o'rtasida tinchlik, ozodlik va insonparvarlik tamoyillarini, do'stlik va o'zaro ishonch g'oyalarini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shdilar"¹. Ayniy XX asr boshlarida shakllangan yangi adabiyot vakili, yo'l boshchilaridan biri bo'libgina qolmay, turkiy va forsiy mumtoz adabiyotning yetuk bilimdoni, tadqiqotchisi hamdir. O.Sharafiddinov, A.Hayitmetov, V.Abdullayev, I.Haqqul kabi olimlarimiz ilmiy merosi xususidagi monografik tadqiqotlar yaratildi. Shubhasiz, mazkur olimlar izlanishlarida tayanch manbalardan bo'lgan Ayniyning mumtoz adabiyot tahliliga bag'ishlangan asarlarini yaxlit o'rganish ham adabiyotshunoslik uchun asos qo'llanmalardan biri bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiqi va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 19-oktyabrdagi PQ-4865-son "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarorlari,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o'zaro bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar" mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi nutqi.
<https://president.uz/oz/lists/view/4484>.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-son "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyani o'tkazish to'g'risida"gi farmoyishi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida nasr, nazm, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, tazkiranavislik, tarix, din, tanqidchilik, tarjima, siyosatshunoslik, elchilik, folklorshunoslik, musiqa, pedagogika, noshirlik kabi bir nechta sohalarni qamrab olgan Sadridin Ayniyning ilmiy-ijodiy merosi o'z davridan tortib hanuzgacha tadqiq va talqin uchun yetarli manba bo'lib kelmoqda. Asarlari turli tillarda salmoqli adablarda nashr etilmoqda. Uning ijodi shoirlikda nom chiqara boshlagan dastlabki davrlardayoq turli tazkira va majmualardan joy olgan².

Ayniy ijodi XX asrning 20-yillardan mahalliy va xorijiy adabiyotshunoslarning e'tiborini tortgan. Ayniyshunoslikda rus va tojik adabiyotshunosligida o'ziga xos maktablar yaratilgan. Jumladan, asrning 30-yillaridayoq Ayniyning adabiy shuhrati sharqshunos Y.E.Bertelsning diqqatini tortgan³. Shuningdek, rus ayniyshunosligida I.S.Braginskiy samarali ish olib borgan. U o'zining ilmiy izlanishlari orqali Ayniy badiiy asarlarining mazmun-mohiyatini rus hamda jahon adabiyotshunosligiga tanitdi, adabiy-estetik qarashlarini ochib berdi va ilmiy asoslar orqali isbotladi. A.A.Semyonov va boshqalar izlanishlari bilan, xususan, Ayniyning badiiy asarlari o'rganildi⁴. Ingliz

² Xoja A'zim Shar'iyning "Tazkirat ush-shuaro"; Afzal Maxdum Pirmastiyning "Afzal ul-tazkor fi zikrushshuaro" (1904), Abdullaxo'ja Abdiyning "Shuaro'i mutaaxxirini Buxoro" (1906); Idrisxo'ja Roziyning "Bayoz"i (1907). Bundan tashqari, Xolida Ayniyning ma'lumoticha, 1909-1914-yillarda yana to'rtta tazkiradan Ayniy lirikasi o'rin olgan. Ular: Ne'matulloh Muhtaranning "Tazkirat ush-shuaro" (1909); Mirmuhammadsiddiq Hashmat Buxoriyning "Tazkirat ush-shuaro" (1905-1914); Sharifjon Maxdum Sadri Ziyoning "Navodir Ziyoiya" (xotiralar, 1910), Mirza Salimbekning "Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-as'hob" (1914). (Manba: Xolida Ayniy. Zindaqinoman Sadridin Ayniy – Душанбе: Балогат, 2017. – С. 40-45.)

³ Бертельс Е. Состояние работ по изучению истории таджикской литературы. Записки Института востоковедения АН СССР. – М. 1933. – С. 86-106.

⁴ Брагинский И.С. Садриддина Айни. Материалы к биографии и творческой характеристике. – Сталинабад: Таджикгосиздат, 1948. – 320 с.; O'sha muallif. Опыт исследования элементов народного поэтического творчества в памятниках древней и средневековой таджикской письменности, автореф. докт. дисс., – М. 1954; O'sha muallif. Реализм Садриддина Айни. "Адабиёти совети тоҷик (Маҷмуаи мақолаҳо)". – Душанбе: Нашрдавтоҷик, 1954. – 320 с.; O'sha muallif. Садриддина Айни – основоположени таджикского литературоведения – ВЛ, 1959, № 3; O'sha muallif. Выдающееся произведение [О "Воспоминаниях" С. Айни]. – Душанбе: Таджикгосиздат, 1954; O'sha muallif. Очерк жизни и творчества Садриддина Айни. – Сталинабад, 1954; O'sha muallif. Проблемы творчества Садриддина Айни. – Душанбе, Ирфон, 1974. – 262 с.; O'sha muallif. Из истории персидской и таджикской литератур. Избранные работы. – М. 1972. – 186 с.; O'sha muallif. От Авесты до Айни. – Сталинабад: Ирфон, 1981. – 226 с.; Семенов А. К прошлому Бухары. – Вкн: Айни С. "Воспоминаниях". – М-Л. 1960. – 186 с.

tilida uning asarlari tarjimai va tadqiqi bilan John Perry and Rachel Lehr shug'ullangan⁵. Eronda ayniyshunoslikning ilk tadqiqotchisi Said Nafisiy, Ataxan Sayfullayevlar hisoblanadi. Ayniyshunoslik bo'yicha, hech shubhasizki, asosiy ulkan tadqiqotlar tojik adabiyotshunosligida amalga oshirilgan. Buning isboti o'laroq 1961-yilga qadar yaratilgan ishlar nomi sanog'ining o'zi ikki jildda birlashganini e'tirof etish yetarli⁶. Bu borada adibning farzandlari Kamol Ayniy, Xolida Ayniyning xizmatlari beqiyos⁷. Bundan tashqari, J.Ikromiy, A.Manniyozov, X.Asozoda, S.Ulug'zoda, M.Imomov, S.Tabarov, Z.Mullajonova, R.Hoshimov, M.Shukurov, Sh.Rahmonov kabilar ayniyshunoslikning turli sohalariga oid risolalar, olim ijodining turli qirralariga doir tadqiqotlar yaratishgan⁸. Bevosita N.Aslova, L.Boboyorova, D.Babayeva, D.Bekova, S.Nizomovalarning tojik va rus tillaridagi Ayniy hayoti va ijodiga oid dissertatsiyalari mavjud⁹.

XX asr ikkinchi yarmidan hozirga qadar o'zbek adabiyotshunosligida ayniyshunoslik ma'lum rivojlanish bosqichini bosib o'tmoqda. Jumladan, N.Rahimov, M.Hasanov, M.Qo'shjonov, Y.Is'hoqov, N.Mallayev, A.G'aniyev, G'.Karimov, T.Mirzayev, O.Sharafiddinov, I.Haqqul, B.Valixojayev, R.Vohidov, M.Mahmudov, T.Qorayev, Sanjar Sodiq, O.Safarov, Z.Hamroyeva, E.Ochilov, Sh.Axmedova, B.Rajabova, M.Qo'chqorovalarning izlanishlarida Ayniyning goh ilmiy¹⁰, goh badiiy¹¹ asarlari haqida mulohazalar bildirilgan. Biroq mazkur ishlar

⁵ The Sands of Oxus. Sadriiddin Aini. Translated from Tajik Persian with an Introduction by John R. Perry and Rachel Lehr. 1998. – P. 268.

⁶ Муллоҷонова З., Азизкулов Ж. Феҳристи асарҳои С.Айний ва адабиёт оид ба ӯ (то охири соли 1961). – Душанбе, 1963.

⁷ Камол Айний. Бист гуфтор аз маънавият. – Душанбе: Адиб, 2004. – 240 с; Холида Айний. Зиндагиномаи Садрриддин Айний. – Душанбе: Балогат, 2017. – 106 с.

⁸ Маниёзов А. Публицистика ва назми устод Садрриддин Айний. – Сталинобод: Нашрдавтоҷ, 1958. – 152 с.; O'sha muallif. Марҳалаҳои таҳаввули шеъри С.Айний // Ҷашномаи Айний. Ҷузъи IX. – Душанбе: Дониш, 2002. – 248 с.; O'sha muallif. Мулоҳизаҳо доир ба ташаккули насри С.Айний // Ҷашномаи Айний. Ҷузъи II. – Душанбе: Академияи фанҳои РСС Тоҷикистон, 1963.; Худойназар Асозода. Устод Садрриддин Айний дар шиноҳти С.Улуғзода. – Душанбе, 2001.; Худойназар Асозода. Воқеият, сиёсат ва С.Айний. – Душанбе, 2010.; Худойназар Асозода. Адабиёти тоҷик дар садаи XX. – Душанбе: Маориф, 1999. – 448 с.; Улуғзода С. Субҳи ҷавонии мо. – Сталинобод, 1956.; Икромий Ҷ. Устоди ман, мактаби ман, худи ман. – Душанбе, 1970.; Фиш Р., Ҳошимов Р. Глазами совести. – Душанбе, 1978.; Ҳошимов Р. Сухан аз устод ва дӯстон. – Душанбе, 1971.; Шукуров М. Хусусиятҳои гоҷавию бадеии "Ёддоштҳо"и устоди Айний. – Душанбе, 1968.; Раҳмонов Ш. Шеър ва Айний. Дигаргунҳои сифати сомонӣ дар лирикаи муосири тоҷик. – Душанбе: Маориф, 1994. – 189 с.; Табаров С. Садрриддин Айний – қофиласолори адабиёти советии тоҷик. – Душанбе: Дониш, 1977.; Имомов М. Ҷаҳонбинӣ ва тафаккури Садрриддин Айний. – Душанбе: Адиб, 2000. – 160 с.

⁹ Аслонова Н. Образ Садрриддин Айни в современной таджикской прозе. дисс...канд.филол.наук. – Душанбе, 2004. – 153 с.; O'sha muallif. Литературно-эстетические взгляды Садрриддина Айни. док... фил. наук. дисс. – Душанбе, 2011. – 298 с.; Бобоёрова Л. Айни и таджикская просветительская литература. дисс...канд. фил. наук. – Душанбе, 2010. – 189 с.; Бабаева Д. Садрриддин Айни и французская литература. дисс...канд. фил. наук. – Душанбе, 1996. – 168 с.; Низомова С. Калимасозӣ дар насри бадеӣ ва публицистии Садрриддин Айний. – Душанбе, 2019. – 224 с.

¹⁰ Раҳимов Н. Садрриддин Айний (Танқидий-биографик очерк). – Тошкент, 1954. – 56 б; O'sha muallif. Садрриддин Айний ва миллий адабий традициялар. – Тошкент, 1969. – 40 б.; O'sha muallif. Садрриддин Айний (маҳоратига доир). – Тошкент: Фан, 1970. – 164 б.; O'sha muallif. Садрриддин Айний иҷодига устозлар таъсири. – Тошкент: 1972. – 72 б; Маллаев Н. Устод санъаткор. Садрриддин Айний. Асарлар. I том. Сўз боши. – Тошкент, 1963. – Б. 5-16; Ғаниев А. Садрриддин Айнийнинг педагогик фаолияти. – Тошкент: Ўқитувчи, 1965. – 84 б.; Каримов Ф. Ўзбек адабиёти тарихи. Учинчи китоб. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975. – 327 б.; Айний замонадошлари хотирасида. Тўлаб, нашрга тайёрловчи Ҳасанов М. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1978. – 224 б.; Садрриддин Айний. Танланган илмий асарлар. Нашрга тайёрловчи Исоқов Ё. – Тошкент: Фан, 1978.

zamidra Ayniyning o'zbek mumtoz tadqiqotchisi ekanligi borasidagi nazariy va ilmiy qarashlar sochma tarzda uchraydi yoki nisbatan bir qirrasigagina e'tibor qaratilgan. Sadridin Ayniyning o'zbek mumtoz adabiyoti tadqiqotchisi sifatida olib borgan ishlari yaxlit holda tadqiq etilmagan.

Yurtimizda Sadridin Ayniy asarlarining sakkiz tomli nashri 1963-1967-yillarda amalga oshirilgan. U N.Mallayevning "Ustod san'atkor" nomli kirish so'zi bilan boshlanadi. Mazkur xayrli ishda to'plovchi M.Hasanov, tarjima va tahririda A.Rustamov, R.Komilov, A.Hakimov kabilar ishtirok etishgan. 1978-yilda M.Hasanovning to'plab, nashrga tayyorlashi natijasida Ayniy tavalludining 100 yilligiga bag'ishlab "Ayniy zamondoshlari xotirasida" nomli, shu yili Y.Is'hoqov tahririda "Tanlangan ilmiy asarlar"i kabi to'plamlar chop etiladi. Bundan tashqari, M.Hasanovning ustodga bag'ishlangan "Ayniy chamani" nomli risolasi ham muxlislar e'tiboriga havola etilgan. Buxoroda 2004-yil Ayniy she'riyatiga bag'ishlangan xalqaro konfrensiya bo'lib o'tdi¹². E'tiborlisi, 2023-yildan boshlab "Ayniy vorislari" nomli jurnal tashkil etildi.

O'zbek ayniyshunosligida XX asrning 90-yillariga qadar ko'plab ilmiy-tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da¹³, bir necha ishlarda o'tgan tuzum mafkurasi, adabiy tanqidiy ruhi yetakchilik qilib, ularda asar poetikasini o'rganishdan ko'ra, olim yozuvchining u yoki bu tuzumga munosabati masalasiga urg'u berilgan. Hozirda Ayniy ijodini tarixiy nuqtayi nazardan o'rganayotgan F.Temirovning ta'kidicha: "Demokratiya va oshkoralik atalgan yillarda ko'plab ijodkorlar qatori S.Ayniy ijodiga ham noxolisona munosabatda bo'lindi, oqibatda bir necha yillar davomida uy muzeyi e'tiborsiz qoldi, asarlari chop etilmay kelindi,

– 335 b.; Xasanov M. Ayniy chamani. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1981. – 176 b.; Valixuayev B., Voxidov P. Navoiy ijodi – ilxom manba'i. – Toshkent: Fan, 1981. – 72 b.; Kuzhjonov M. Ayniy badiyatining evolyutsiyasi. – Toshkent: Fan, 1988. – 160 b.; Voxidov P., Maxmudov M. Ustod Sadridin Ayniy saboklari. – Toshkent: Fan, 2004. – 204 b.; Ibrohim Xakkuul. Takdir va tafakkur. – Toshkent: Shark, 2007. – 279 b.; Qoraev T. Sadridin Ayniyning adabiy tanqidiy karashlari // Uzbek tili va adabiyoti. 1973, №1; Qoraev T. Ayniy va Buxorolik shoirlar / Buxoro haqiqati, 1971, 20 may. Mirzaev T. Sadridin Ayniy ijodini urganishning ayrim masalalariga doir // Uzbek tili va adabiyoti. 2003, № 5. – B. 3-4.; Xakkuulov I. Ayniy abadiyati // Uzbek tili va adabiyoti. 2003, № 5. – B.4-13.; Xayitmetov A. Zabardast navoiyshunos // Uzbek tili va adabiyoti. 2003, № 5. – B. 18-21.; Karimov N. Sadridin Ayniy va Balzak // Uzbek tili va adabiyoti. 2003, № 5. – B. 21-26.; Orzibekov P. Sadridin Ayniy va XIX asr uzbek adabiyoti // Uzbek tili va adabiyoti. 2003, № 5. – B. 26-29.; Sobirov A. Ayniy asarlarida maydon nazariyasidan foydalaniш // Uzbek tili va adabiyoti. 2003, № 5. – B. 29-31.; Sharafigidinov O. Ulkan xatning ilk sahifalari / "Iste'dod jilolari" kitobidan. Adabiy portretlar. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1976. – 232 b.; Saфарov O. Buxoro adabiy harakatчилиги тарихидан лавхалар. – Бухоро: Дурдона, 2015; Sanjar Sodiq. Yangi o'zbek adabiyoti tarixi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – 772 b.; Xamroeva Z. Soktarining fidoiy farzandlari. – Buxoro: 2019.; Axmedova Ш. Mazrifatparvar jadid tanqidchilari. – Buxoro: 2023. – 114 b.; Rajabova B. Temuriylar renessansi va "Boburnoma". – Toshkent: Fan, 2022. – 227 b.; Ochilov E. Ayniy haqidagi hikoyalar: <https://kh-davron.uz/tag/ergash-ochilov> (Fors-tojik tilidagi matnlar tarjimasida yordam bergan mohir mutarjim, adabiyotshunos E.Ochilovga o'z minnatdorчилиgimizni bildiramiz.

¹¹ Qo'chqorova M. O'rta Osiyo xalqlarining Balzagi / "Sudxo'ning o'limi" va "Gobsek" qissalarida tipologik mushtarakliklar. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/urta-osiyo-xalqlarining-balzagi/>

¹² Barxat sheryat / "Sadridin Ayniy sheryatida an'ana, ijodiylik va badiiylik muammolari" mavzuidagi xalqaro ilmiy konferentsiya materiallari. – Buxoro: 2004. – 112 b.

¹³ Kilychev Э. Архаизмы и историзмы в прозе Садриддина Айна. Автореф. дисс. канд филол. наук. – Toshkent: 1969.; Azimov S. Bliugvizim Sadrididina Ayni i problemi avtorskogo perevoda. – Toshkent: 1986. – 164 s.

mavjudlari darsliklardan chiqarildi”¹⁴. Hozirgi vaqtda esa Ayniy hayoti va ijodiga doir adabiy, tarixiy, tilshunoslik, qiyosiy adabiyotshunoslik doirasida anchagina tadqiqotlar olib borilmoqda. Ular orasida bevosita olim ijodiga bag‘ishlangan maxsus izlanishlar T.Choriyev, R.Jumayev, S.Toxirovalar tomonidan amalga oshirilgan. A.Hayitov, N.Bekova, T.Shaymardonovlarning¹⁵ dissertatsiyalari ma’lum fasllari tarkibida Ayniy ijodining o‘zbek mumtoz adabiyotiga daxldor izlanishlari borasida ba’zi mulohazalar bor. Tadqiqot jarayonida o‘zbek va xorij ayniyshunoslari izlanishlaridan foydalanildi. O‘zbek mumtoz adabiyoti tadqiqotchiligini o‘rganish borasidagi mazkur ish ham ilk bora monografik tarzda o‘rganilayotgani bilan o‘zbek adabiyotshunosligidagi, xususan, ayniyshunoslikdagi muhim bo‘shliqni to‘ldiradi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasi, ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari, jumladan, “To‘rt jildlik “Alisher Navoiy ensiklopediyasi”ni nashr etish” (2021-2023-yy.) mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Sadridin Ayniyning Sharq, asosan, o‘zbek mumtoz adabiyotiga bag‘ishlangan ilmiy va amaliy tadqiqotlarini yaxlit holda tahlil etish, o‘zbek adabiyotshunosligi rivojidadagi hissasi, shuningdek, Alisher Navoiyga bag‘ishlangan izlanishlari, “Xamsa” asarining Tanlanma nashri va tadqiqotining o‘ziga xosligini asoslab berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari.

mumtoz adabiyotni o‘rganishdagi asos mezonlarni Sadridin Ayniy ilmiy merosi asosida ochib berish, olimning Sharq, xususan, o‘zbek adabiyotshunosligi rivojida tutgan o‘rnini aniqlash;

Sadridin Ayniyning badiiy, tarixiy, diniy, pedagogik, lug‘atshunoslikka oid asarlarida keltirilgan adabiyotshunoslikka doir fikr-qarashlarini to‘plash va ularni tadqiq etish asosida adabiyotshunoslikda Ayniy mahorati va u yaratgan tamoyillarning yosh olimlar uchun ibratini ko‘rsatib berish;

shogirdlar yetishtirishdagi jonkuyarligi, zamondoshlari bilan aloqasi, maktublari orqali bildirgan keskin munosabatlarini ochib berish, turkiy zullisonayn ijodkorlarni o‘rganishda “Namunai adabiyoti tojik” tazkirasining muhim manba ekanligini dalillash, shuningdek, Ayniyning matnshunoslik, lug‘atshunoslik sohasidagi xizmatlarini nazariy asoslarini belgilash;

XX asr navoiyshunosligi rivojida Ayniyning hissasi, murabbiylik ko‘rsatmalari, amaliy faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash va tahlil etish;

olimning Alisher Navoiy hayoti va ijodiga oid tadqiqotlarining o‘zbek

¹⁴ Temirov F. Mustaqillik yillarida Sadridin Ayniy ilmiy-adabiy merosining o‘rganishi // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar, 2023. № 2. – B.18-22.

¹⁵ Хайитов А. Алишер Навоий “Хамса”сини насрийлаптириш: анъана, табдил ва талқин. Филол. фан. номз.... дисс. – Тошкент: 2000. – 168 б.; Чориёв Т. Забон ва услуби асарҳои публицисти Садриддин Айнӣ. – Тошкент: Мухаррир, 2014. – 111 с.; Bekova N. Alisher Navoiy forsiy merosining janriy xususiyatlari va badiiyati. Filol. fan. d-ri (DSc)...diss. – Buxoro, 2021. – 275 b.; Shaymardonov T. Siddiqiy-Ajziy asarlarining qiyosiy-matniy tadqiqi. Filol. fan. b. fals. d-ri (PhD)...diss. – Toshkent, 2023. – 148 b.; Jumayev R. Sadridin Ayniyning tojik va o‘zbek tillaridagi asarlari toponimlari tadqiqi. Filol. fan. b. fals. d-ri (PhD)...diss. – Toshkent, 2024. –145 b.; Toxirova S. Sadridin Ayniy asarlarining Yevropa adabiyotiga ta’siri va tarjimasi. Filol. fan. b. fals. d-ri (PhD)...diss. – Buxoro, 2024. – 138 b.

navoiyshunosligidagi o'rnini aniqlash, jumladan, ilk marotaba Ayniy tahririda nashr etilgan Alisher Navoiy "Xamsa"si tabdilini yaratishdagi tamoyillarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning obykti sifatida Sadridin Ayniyning mumtoz adabiyot tadqiqotchisi sifatida olib borgan barcha ilmiy tadqiqotlari va amaliy faoliyati, shuningdek, adabiyotshunoslikka oid qarashlari aks etgan badiiy, tarixiy, ilmiy asarlari hamda darsliklari belgilab olindi.

Tadqiqotning predmetini Sadridin Ayniyning o'zbek va tojik tillarida nashr etilgan asarlari, maqolalari va ilmiy tadqiqotlari, monografiyalari, asosan, asarlarining qisqartirilib tayyorlangan o'zbek tilidagi 8 tomlik nashri, tojik tildagi "Namunai adabiyoti tojik" antologiyasi, 15 tomlik "Kulliyot"i, Ayniy ijodiga bag'ishlab olib borilgan o'zbek va tojik tillaridagi tadqiqotlar, to'plamlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda biografik, kontekstual tavsiflash, tasniflash va adabiy tahlil usullari qo'llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Sadridin Ayniyning o'zbek mumtoz adabiyoti tadqiqotchisi va targ'ibotchisi sifatida shakllanishi uchun ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy, madaniy, adabiy omillar tarjimai holi, ilmiy-badiiy asarlari, tarixiy manbalar asosida oydinlashtirilib, adibning ijodiy merosiga tayangan holda turkiy adabiyot namunalarini g'oyaviy-badiiy jihatdan tadqiq etish hamda ijodkorlar hayot yo'lini o'rganish mezonlari asoslangan;

adabiyotshunos Ayniyning o'zbek mumtoz adabiyoti tadqiqiga bag'ishlangan ilmiy qarashlari, xususan, adabiyot ravnaqi, adabiyotshunoslik rivoji uchun yozilgan maktublaridagi taklif hamda xulosalarining qimmatini yoritilib, olimning mavzu va uslub tanlash mahorati dalillangan;

mumtoz asarlar tahliliga, turkiy va mumtoz adabiyot vakillari ijodiga bag'ishlangan tadqiqotlari, lug'atshunosligi, "Namunai adabiyoti tojik" tazkirasida keltirilgan zullisonayn turkiy ijodkorlar hayoti va ijodiga doir ma'lumotlar, adabiy tahlillarning ahamiyati ko'rsatilib, olimning mavzu hamda ifoda tanlashdagi mahorati ilmiy izlanishlari asosida isbotlangan;

Sadridin Ayniyning navoiyshunosligi maqolalari, "Alisher Navoiy" monografiyasining tahlili orqali belgilanib, matnshunoslik, targ'ibotchilik faoliyati, shuningdek, tabdil va talqindagi mahorati tanlanma "Xamsa" nashri asosida ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Sadridin Ayniyning "Namunai adabiyoti tojik" tazkirasidan o'rin olgan zullisonayn ijodkorlarga bag'ishlangan tadqiqotlari orqali matnshunoslik masalalari, adabiy-estetik qarashlar mohiyati, irfoniy tahlil usullari yoritib berilgan. Navoiy "Xamsa"si nashridagi o'ziga xos yondashuvi, "Alisher Navoiy" monografiyasidagi adabiy-estetik qarashlari, tahlil tamoyili navoiyshunoslikda muhim ahamiyat kasb etishi aniqlangan;

Sadridin Ayniyning "Qisqacha tarjimayi holim", "Esdaliklar", "Buxoro inqilobi uchun tarixiy materiallar" kabi asarlari orqali ijodkorda shakllangan adabiyotga ixlosmandlik, olimning ta'lim jarayonlari vositasidagi yetuklik mumtoz adabiyot tadqiqotchisiga xos xislatlar xususidagi nazariy qarashlarni boyitadi;

Ayniyning Hamid Olimjon, Olim Sharafiddinov, Lohutiy, jumladan, Navoiy komiteti a'zolariga yo'llagan maktublari, mumtoz janrlarda bitgan lirikasi, Behbudiy vafotiga atab yozgan marsiyalari asosida o'zbek adabiyotining jonkuyari ekanligi ilmiy dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilganligi, chiqarilgan xulosalarning biografik, tarixiy-qiyosiy, kontekstual, adabiy tahlil, tavsiflash va struktural tahlil kabi usullari vositasida asoslangani, nazariy ma'lumotlarning ilmiy manbalarga asoslanganligi, ishonchli manbalar hamda lug'atlardan foydalanilganligi, nazariy qarashlarning amaliyotga tatbiq etilgani, natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, chiqarilgan nazariy xulosalar nafaqat o'zbek, balki jahon adabiyotshunosligida, ayniqsa, navoiyshunoslik va ayniyshunoslikda, adabiy janrlar, ularning poetik xususiyatlari, mavzu-mundarijalar yuzasidan mavjud ma'lumotlarni kengaytiradi va to'ldiradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ushbu dissertatsiya ishi materiallaridan ta'limning turli bosqichlarida, xususan, oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlarida maxsus kurslar: "Jahon adabiyoti", "Adabiyot nazariyasi", "O'zbek adabiyoti tarixi", "Navoiyshunoslik" yoki seminar mashg'ulotlarini o'tkazishda, umumiy o'rta ta'lim hamda ixtisoslashtirilgan maktablarda o'qitiladigan adabiyot darslaridagi navoiyshunoslik, she'riy janrlar va san'atlar bobida, shuningdek, mavzuga oid darslik, qo'llanma va risolalar yaratishda material bo'lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. "Sadridin Ayniy – o'zbek mumtoz adabiyoti tadqiqotchisi" mavzusi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Sadridin Ayniyning o'zbek mumtoz adabiyoti tadqiqotchisi va targ'ibotchisi sifatida shakllanishi uchun ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy, madaniy, adabiy omillar tarjimai holi, ilmiy-badiiy asarlari, tarixiy manbalar asosida oydinlashtirilib, adibning ijodiy merosiga tayangan holda turkiy adabiyot namunalarini g'oyaviy-badiiy jihatdan tadqiq etish hamda ijodkorlar hayot yo'lini o'rganish mezonlari asoslangani bilan bog'liq xulosalardan Buxoro davlat universitetida 2024-yilda bajarilgan AL-662204396 "Buxoro adabiy muhiti ijodkorlarining ilmiy-adabiy merosi bo'yicha elektron platforma yaratish" mavzusidagi amaliy loyihasida foydalanildi (2025-yil 19-martdagi 01-04/1821-son ma'lumotnomasi). Natijada Ayniyning Buxoro adabiy muhitida Sadri Ziyo, Ahmad Donish, Hayrat kabi ziyolilar ta'sirida, noyob kutubxonalardan foydalanishi kabi omillar bilan mohir o'zbek mumtoz adabiyoti tadqiqotchisi bo'lib yetishganligi, unda shakllangan adabiyot tadqiqotchisi uchun zarur me'zonlar hozirgi davr izlanuvchilari uchun ham o'rnatilgan bo'la olishi kabi masalalar asoslangan.

adabiyotshunos Ayniyning o'zbek mumtoz adabiyoti tadqiqiga bag'ishlangan ilmiy qarashlari, xususan, adabiyot ravnaqi, adabiyotshunoslik rivoji uchun yozilgan maktublaridagi taklif hamda xulosalarining qimmatini yoritilib, olimning mavzu va uslub tanlash mahorati dalillanganligi, mumtoz asarlar tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlari, lug'atshunosligi, "Namunai adabiyoti tojik" tazkirasida keltirilgan zullisonayn turkiy ijodkorlar hayoti va ijodiga doir ma'lumotlar, adabiy

tahlillarning ahamiyati ko'rsatilib, olimning mavzu hamda ifoda tanlashdagi mahorati ilmiy izlanishlari asosida yoritilganligi bilan bog'liq xulosalardan Qo'qon davlat pedagogika institutida 2022-yilda bajarilgan AL-322103020 raqamli "Qo'qon adabiy muhiti ijodkorlari hayoti va ijodi bo'yicha web sayt va platforma yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Muqimiy nomidagi Qo'qon davlat pedagogika institutining 2024-yil 12-dekabrda 1622/04-son ma'lumotnomasi). Natijada Ayniy tazkirasida keltirilgan muhim ma'lumotlar, Muhammad Aminxo'ja Muqimiy haqidagi maqolasi tahlili yoritilgan o'rinlar orqali Qo'qon adabiy muhiti yaxlit planda aks etganligi hamda asar o'zbek mumtoz adabiyoti uchun qimmatli manba ekanligi kabi masalalar ilmiy dalillar asosida ochib berilgan;

Sadriddin Ayniyning navoiyshunosligi maqolalari, "Alisher Navoiy" monografiyasining tahlili orqali belgilanib, matnshunoslik, targ'ibotchilik faoliyati, shuningdek, tabdil va talqindagi mahorati tanlanma "Xamsa" nashri asosida ochib berilganiga oid xulosalardan "O'zbekiston" teleradiokanali DM tomonidan tayyorlangan "G'azal bo'stoni", "Ta'lim va taraqqiyot" nomli dasturlarning ssenariylarida foydalanilgan, 2025-yil yanvar, fevral oylari sonlarida Ayniy ilmiy va ijodiy merosini O'zbek mumtoz adabiyotshunosligi nuqtayi nazaridan baholash kabi masalalar borasida tadqiqotchi bilan bevosita suhbat olib borilgan (O'zbekiston" teleradiokanali" DMning 2025-yil 20-martdagi 05-09-354-son ma'lumotnomasi). Natijada Amiriy, Nodira, Shavqiy Kattaqo'rg'oniy, So'fi Olloyor, xoja Ismat Buxoriy, Shermuhammad Akmal, Maxmur, Gulxaniy va boshqa ko'pgina Qo'qon adabiy muhiti vakillari haqidagi Sadriddin Ayniy mulohazalari va ular ijodidan "Namunai adabiyoti tojik" tazkirasida keltirilgan namunalar, mumtoz an'analar doirasida qilingan tahlillar radiotinglovchilar uchun muhim ahamiyat kasb etishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma'ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 1 ta monografiya, 14 ta ilmiy maqola chop etilgan, jumladan, O'zR Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta, jumladan, xorijiy jurnalda 2 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 156 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi, zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi hamda vazifalari, obykti-yu predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy, amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini

amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "O'zbek mumtoz adabiyoti tadqiqotchiligidagi Ayniyga xos tahlil va talqin masalasi" nomli dastlabki bobining "Sadriddin Ayniy ilmiy merosi va o'zbek mumtoz adabiyotining o'rganilish mezonlari" sarlavhali birinchi faslida Sadriddin Saidmurodzoda Ayniyning olimlar ta'kidlaganidek, nafaqat adabiyot, balki XX asr o'zbek va tojik adabiyotshunosligining ham asoschilaridan ekanligi, o'zbek – turkiy va forsiy mumtoz adabiyotning mohir bilimdoni bo'lib yetishishidagi omillar tadqiq qilingan. Tojikcha nashrida muallif marsiya deb atagan "Esdalik"larda muallifning mumtoz adabiyotga oshnolik sirlari ochib beriladi. "Qisqacha tarjimayi holim"da esa Ayniyning madrasadan keyingi hayotidan tortib 1948-yilgacha bo'lgan faoliyati haqida qisqacha ma'lumotlar berilganki, unda olimlik kamoloti yanada yorqin ko'rinadi.

Sadriddin Ayniyda adabiyotga, xalq og'zaki ijodiga bo'lgan qiziqish yoshligidan oilaviy muhitda, tabiatan shoirlikka ishqi baland otasi, shuningdek, "hikoyachilikda o'sha savodsiz sakson yashar kampirni o'zimning birinchi ustozim deb bilaman va har vaqt hurmat bilan eslayman"¹⁶ deya e'tirof etgan To'taposhsha kampir, bayram, sayl va hokazolar tufayli paydo bo'lgan. Ayniy asarlarida o'z ijodiy kamolotiga turtki bo'lgan uch shaxsni urg'ulab ko'rsatadi. Bular, Sharifjon Sadri Ziyo, Ahmad Donish va shoir do'sti Hayratdir. Mumtoz adabiyotda an'ana va ta'sir har sohada ko'rinadi, ayniqsa, maslak, kompozitsiya, badiiyat, uslub – bari-barida arab va fors adabiyotiga izdoshlik bo'lgan. Zullisonaynlik mumtoz adabiyotning o'ziga xos muhim jihatlaridan biridir. Mumtoz adabiyotimizda arabiy va forsiy kalimalarning qo'llanilishi ham ushbu tillarni bilish matn mazmunini to'g'ri tushunish hamda tahlil qilishda birmuncha qulayliklar tug'diradi. Ayniyning Sharq adabiyoti an'anelarini puxta o'rganganligi asarlari orqali dalillandi. Mumtoz adabiyot asrorlarini anglash uchun zamin arab tilining sarf-u nahvi, mantiq, aqoidi islomiy (ilmi kalom), hikmat (tabiiy va ilohiy), fiqhi islomiy, ilmi bade' o'qitilgan Buxoro madrasalarda egallangan.

Ayniyning aqida ilmlari o'z aksini topgan "Zaruriyyoti diniyya" "Tartil-ul Qur'on", "Tahzib us-sibyon" nomli darsliklari muallifning nechog'li Qur'oni karim, hadisi sharif va shariat ilmlarining bilimdoni ekanligini dalillashi barobarida uning adabiyotshunosligini ham ko'rsatadi. Birgina "Zaruriyyoti diniyya" yakunida to'rtta she'r keltiriladi. Birinchisi muallifsiz arabiy qasida bo'lib, u Rasululloh s.a.v.ga bag'ishlangan na't – 9 bayt; Abdurahmon Jomiyning forsiy na'ti – 18 bayt; "Tuhfat-ul-ahror"dan munojot – 15 bayt; shu asardan olingan 16 baytli na'tlardir. Ayniyning fors adabiy tili lug'ati, Navoiy asarlariga tuzilgan lug'at uchun ham o'z maslahatlarini ayamaganligi forsiy, arabiy, qadimgi turkiy tillar bilimdoni ekanini ko'rsatadi. Ayniyning *matnshunoslik* borasidagi ko'nikma va bilimlari, deyarli, har bir ilmiy asarida o'z aksini topgan. Ahmad Donishning "Navodir ul-vaqoe" asari asliyati nuxxalashda ishtirok etgan, qolaversa, aksariyat qismini zullisonayn ijodkorlar tashkil etgan "Namunai adabiyoti tojik" nomli antologiyasini tuzishda 80 ga yaqin qo'lyozma tazkiralar va asarlardan foydalangan. Ayniyning o'zbek mumtoz adabiyot tadqiqotchiligidagi

¹⁶ Айнӣ С. Асарлар. Саккиз томлик, бешинчи том. – Тошкент. Бадий адабиёт, 1965. – Б. 44.

muvaffaqiyati omillaridan yana biri mumtoz adabiyotshunoslikning she'r va shoirlik haqidagi talab va mezonlarini ham mukammal tarzda o'rganganligi va o'zining ham bu borada barakali ijod qilganligi bilan belgilanadi. Chunonchi, u 152 ta g'azal, 25 ta qit'a, 48 ta ruboiy, 5 ga yaqin muvashshah, 10 ta qasida, 12 ta masnaviy, 20 ta fard, 10 dan ziyod muxammas, 3 ta musaddas-tarkibband, musaddas-marsiya, tarje'band, muammo, chiston, tuyuq kabi janrlarda ijod qilgan. Behbudiy vafotiga atab Fitrat, Cho'lpon kabi safdoshlari marsiya va maqolalar bitishadi. Yozilgan marsiyalar orasida Ayniy nazmi mumtoz ruhning ufurib turishi bilan boshqalaridan ajralib turadi.

Bobning "*Ayniy asarlarida ilm va ijod uyg'unligi masalasi*" deb nomlangan ikkinchi faslida XX asr adabiy tanqidchiligida Sadriddin Ayniyning o'zbek mumtoz adabiyotshunosi sifatidagi o'rni maktublari, she'riyati, ustozlik faoliyati va maslahatlari asosida oydinlashtirilgan. Adabiyotshunos Majid Hasanov Ayniy maktublari borasida atroflicha izlanish olib borib, ulardan bir nechtasini o'z kitobi tarkibida nashr ettiradi¹⁷, o'zbek tilidagi Ayniy asarlarining sakkizinchi tomida ham xatlaridan namunalar mavjud. Majid Hasanov tadqiqotlarining birida Ayniyning Hamid Olimjon, Abdulla Qodiriy, G'afur G'ulom bilan yozishmalariga alohida e'tibor qaratiladi. Tilshunos Sobirjon Ibrohimovning xotirlashicha: "Navoiy lug'atining I tomi (70 bosma varaq hajmida) qo'lyozmasi tuzildi. Uni Ayniyning ko'ruvidan o'tkazish lozim bo'ldi ...qo'lyozmaning bir nusxasini men Samarqandga oborib domlaga topshirib keldim. U qo'lyozmani ko'rib, bir qancha qimmatli mulohazalari bilan bizga qaytardi"¹⁸, – deydi. M.Hasanovning akademik shoir G'afur G'ulom bilan bo'lgan suhbatlarida ham shu mavzuda so'z boradi. G'.G'ulom: "Ayniy domla *iz'on* – bo'ysunish, *g'ulf* – quvur, *g'urfa* – boloxona, *g'usl* – cho'milish, *hajjom* – tomirdan qon oluvchi tabib, *hayjo* – urush, jang; *hayza* – vabo kabi ko'plab so'zlarning ma'nolarini yozib yuborganlari hali esimda. Ayniyning arab, fors va turkiy tillarning ajoyib bilimdoni, mashhur sharqshunos va adabiyotshunos olim ekanligiga yana bir marta qoyil qolgan edik"¹⁹, – deydi. Sadriddin Ayniyning Hamid Olimjonga yo'llagan bir maktubini yozishiga Abdurahmon Sa'diyning "O'zbek adabiyoti va san'ati" jurnalining 1939-yil, 9-sonida chop etilgan maqolasi sabab bo'ladi²⁰. "Bu to'g'rida bu maqolada tafsilli misollar keltirish uchun hozir fursat va hafsalam bo'lmasa ham kichkina bir hisobot yozishga majburman", – deya Ayniy maktubda yozadi: "Sa'diy o'z maqolasida 120 ta lug'atga izoh yozgan bo'lsa-da, ularning 25 tasi xato. "Navoiy she'rini tamoman ma'nosiz bir narsa qilib yuborgan. 15 joyda Navoiy tekstlarini xato o'qib, xato ko'chirgan... vazn qofiyalarni buzib yuborgan... Bir joyda Navoiy "Saddi Iskandariy"ning oxiridagi o'z ukasi Darvesh Aliga xitob yozgan bir parchadan misra ko'chirib, u misralarni Navoiy Husayn Boyqaroga xitob qilib yozgan, degan... "Saddi Iskandariy"dan ko'chirilgan bir parchani "Sab'ai sayyor"dan deb yuborgan", – deydi. Sharq klassik adabiyotining mohir bilimdoni bo'lmish Sadriddin Ayniy ular xususida qilingan noto'g'ri tahlillarga, asl matnlar

¹⁷ Qarang: Hasanov M. Ayniy chamani. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1981. – B. 150-160.

¹⁸ Ayniy zamondoshlari хотирасида. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1978. – B. 45.

¹⁹ Hasanov M. Ayniy chamani. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1981. – B. 84.

²⁰ Shu asar. – B. 155-158.

bilan ishlanmay chiqarilgan xulosalarga jim qarab turolmaydi. Ishda boshqa maktublar ham shu tarzda izchil tekshirildi va olim Ayniyning xizmatlari yoritildi.

“Ayniy ilmiy merosida adabiyotshunoslik muammolari”ga bag‘ishlangan ikkinchi bobning ilk fasli “*Ayniyning tadqiqot uchun mavzu va usul tanlash mahorati*” deya nomlanadi. Olimning mumtoz adabiyotshunos sifatidagi zahmatlaridan biri “Namunai adabiyoti tojik” tazkirasining yaratilishidir. 1926-yilda Moskvada arab imlosida nashr etilgan mazkur asar yangi tojik adabiyotining ilk namunasi sifatida qabul qilindi va tarixiy-siyosiy jihatdan alohida qimmatga ega bo‘ldi. Unda adabiyotshunoslikning asosiy uch qismi: adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi, adabiy tanqidiga doir muhim ma‘lumotlar va muallifning nazariy xulosalarini topish mumkin. Qisqa muddat ichida ham katta makon, ham katta zamonga oid materiallarni o‘zida jamlagan ushbu tazkira ma‘lum kamchiliklardan xoli bo‘lmasa-da, yirik ming yillik, ma‘naviy jamlanma edi. Kitob uch qismga bo‘lingan bo‘lib, ijodkorlarning, avvalo, yashagan davri hisobga olingan. “Tazkira”da obyektiv sabablar va geografik chegaralar tufayli Movarounnahr va Turkistonda yashagan va bu joylar bilan aloqador bo‘lgan 222 nafar shoir, yozuvchi, tazkiranavis, ijodkor olimlar kiritilgan. Ularning aksariyati zullisonayn bo‘lib, ustoz Ayniyning o‘zi kabi tojik va o‘zbek xalqlari adabiyotiga teng xizmat qilganlardandir. Tazkiranavis “Namunai adabiyoti tojik” majmuasiga bir nechta tasavvuf allomalari (Najmiddin Kubro, Kamol Xo‘jandiy, Pahlavon Mahmud, So‘fi Olloyor, Hasanxo‘ja Nisoriy kabilarning) nomini kiritishga, ularning ijodidan namunalar, maslagiga ishoralar berishga muvaffaq bo‘lgan. Ayniy “Namunalar”ning birinchi bobini yakunlashdan oldin Movarounnahr va Turkistonda yashagan yoki shu joylar bilan aloqasi bo‘lgan 5 nafar shoirlar nomini keltiradi. Ijodkorlar tarjimayi holi, kezi kelganda, bir emas, bir nechta manbalar qiyosi asosida shakllantiriladi. Asarda XV-XX asrlar orasida faoliyat ko‘rsatgan hokim-shoh-amir ijodkorlardan ayrimlari ham kiritilgan. Ayniy tazkirasidan o‘rin olgan shoh va shahzodalar ijodi jamlanib tartiblansa, tasavvurimizda “muxtasar tazkirayi salotin” vujudga keladi. Ayniy tadqiqotida, deyarli, har bir ijodkor nomiga uning qayerdanligini (ba‘zan unvonini: voliy, qozikalon, maxdum) anglatib turuvchi so‘zlarni taxallusining bir qismi sifatida qo‘shimcha qilgan. Ushbu hol (Buxoriy, Xo‘jandiy, Xo‘qandiy kabi), aksariyat tazkiralarda uchramaydi. Bu o‘z navbatida, aniqlikni xush ko‘ruvchi tuzuvchining o‘ziga xos yo‘sini bo‘lib, mutolaa jarayonida kitobxon uchun hududiy jihatdan tasavvurini tiniqlashtirib borishda kompas vazifasini o‘taydi.

Tazkirada Qo‘qon adabiy muhiti vakillari haqida ham qimmatli ma‘lumotlar uchraydi. Jumladan: Amir Umarxon – voliyi Farg‘ona, Nodira Andijoniy, Zokirxo‘ja Namangoniy, Ramzi Xo‘qandiy, Rindiy Namangoniy, Fazliy Namangoniy, Kasrati Namangoniy, Mirsaidg‘ozi Nolai Xo‘qandiy, Gulxaniy Namangoniy, Behchati Farg‘onagiy, Mulloshermuhammad Akmalii Xo‘qandiy kabi ijodkorlar haqidagi ma‘lumotlar “adabiyotning chinakam ixlosmand”larini befarq qoldirmasligi tayin. Shu o‘rinda, olim Sharq adabiyotida avvaldan mavjud bo‘lgan radifgo‘ylik an‘anasi aynan Amiriy davrida ravnaq topganligiga e‘tibor qaratadi. Ayniy tadqiqotlarida qaysi bir ijodkor haqida gap ketsa, uning hayoti, asarlaridagi mavzu va g‘oya, badiiy ijodi jarayonining rivojlanish qonuniyatlari, badiiy asar tili mushtarak o‘rganiladi. Zabardast, daho adabiyotshunoslarga xos

muhim bir xususiyat, fazilat bor. Bu adabiyotning ustun ijodkorlari, bosh g'oyalar, tayanch badiiyat asoslarini tadqiq markazi sifatida tanlab olishdir. Ayniyning 1940-yilda yaratilgan "Ustod Rudakiy" nomli risolasi; 1940-yilda "Firdavsiy va uning "Shohnoma"si to'g'risida"gi risolasi; 1939-yilda yozilgan "Shayx ul-ra'is abu Ali ibn Sino" nomli, 1954-yilda Bedil haqidagi – "Mirzo Abdulqodir Bedil" monografiyasi fikrimizni dalillaydi. Shuningdek, "1939-yil, 28-mart, Samarqandda" imzosi bilan yozilgan "Kamol Xo'jandiy"; 1942-yilda alohida kitobcha shaklida chop etilgan "Shayx Muslihiddin Sa'diy Sheroziy" nomli risolalari, "Muqimiy va uning davri" nomli maqolasi 1943-yil, 1946-yilda "Zayniddin Vosifiy (uning "Badoe ul-vaqoe"asari haqida)" nomli tadqiqotlarini yaratgan. Ayniyning adabiyotshunoslikdagi muvaffaqiyati omillaridan biri so'z sehrini anglashida ko'rinadi. Asarning g'oyasi, badiiyatidan bahs yuritarkan, til xususiyatlariga ham diqqat qaratadi. Ayniy kimning izlanishlari bo'lmasin, xato va dalili noaniq ma'lumotlarni tuzatishni olimlik burchi sanagan. O'ziga ham shunday talab qo'ygan. Biroq har sohada asliyat va aniqlikka muhim ahamiyat qaratadigan Ayniy o'zbek adabiyotshunosligi uchun tarixiy manba hisoblangan Vosifiyning "Badoe ul-vaqoe"si tabdilida chekinish qilgan. Asarni, avvalo, tarixiy-xronologik jihatdan qayta tartibga solgan, axloq me'yorlariga zid, o'z holicha beparda tasvirlangan voqealar bayonini tushirib qoldirgan, arabcha misra, hadis, she'r va maqollarni batafsil izohlagan. Ayniy jahon bedilshunosligi tan olgan darajada katta bir tadqiqot yaratgan. Mustashriq Y.E.Bertels Ayniyning "Mirzo Abdulqodir Bedil" monografiyasiga yozgan muqaddimasida "Bedil hayotiga oid ilk mufassal asar", deya haqqoniy baho beradi. Ayniyning ilmiy merosidagi yana bir muhim tadqiqot – tilshunoslik va adabiyotshunoslik uchun ham birday qimmatli lug'atshunoslik faoliyatidir. U "1936-38-yillar orasida 15000 so'zdan iborat tojik adabiy tili lug'atini tuzdim"²¹ deydi. Alisher Navoiy, Bedil, Soib kabi qator shoirlar lirikasidan misollar ham o'rin olgan, ushbu lug'atdagi arabiy, forsiy so'zlarning aksariyati o'zbek mumtoz adabiyotida ham mavjud. Masalan, kitobning birinchi sahifasidan o'rin olgan 19 so'zning 11 tasi: *abu, abad, abadulabad, abgor(afgor), abd, abdol, abr, ablah, abno(i), abo, abrapo'stin* o'zbek mumtoz adabiyotida ham keng qo'llaniladi. Ularning arab yozuvida ham berib, asl, istilohiy, majoziy ma'nolarining uyg'un holda izohlanishi asarning ahamiyatini oshirgan. O'zbek adabiyotshunoslari uchun ham ushbu lug'at muhim manba ekanligiga shubha yo'q.

Bobning "*Fors-tojik adabiyoti va Navoiy ijodiyoti*" nomli ikkinchi faslida Ayniy ijodining salmoqli qismi Navoiyga bag'ishlangani, shoirning forsiy merosi haqidagi izlanishlari tadqiq etilgan. Olim, dastlab, "Namunalar"da Alisher Navoiy ijodiga murojaat qilgan. Adabiyotshunos Abduqodir Hayitmetov Ayniyning ushbu amaliy izlanishi orqali: "O'tgan asrning yigirmanchi yillarida o'zbek adabiyotshunoslari orasida: "Navoiy biz uchun kerakmi yoki kerak emasmi?" – degan masala yuzasidan bahs borar ekan, "Namunai adabiyoti tojik" tazkirasiga Navoiynining "Tuhfat ul-afkor" qasidasini ham kiritib, uning faqat o'zbek adabiyotining emas, balki fors-tojik adabiyotining ham buyuk namoyandasi ekanini ko'rsatgan va yuqoridagi mantiqsiz zararli bahsga amaliy javob bergan

²¹ Айний С. Асарлар. Саккиз томлик, биринчи том. – Тошкент: Бадний адабиёт, 1963. – Б. 102.

edi”²², – deya Ayniyning navoiyshunoslikdagi ulkan xizmatini xolis va to‘g‘ri baholagan. Tazkiraning birinchi bobi 44-raqami ostida “Nizomiddin Amiri Alisheri Navoiy (tavallud 844, vafot 906)”²³ sarlavhasi bilan shoir merosidan parchalar va “Tuhfat ul-afkor” qasidasidan 13 bayt 26 misra beriladi. Uni “Nusxae, ki ba dast aftod, bisyorg‘alat bud, binobarin ba xadre ki xonda shud, intixob yoft”, ya‘ni “Qo‘lga tushgannusxa juda xato edi, shuning uchun o‘qiy olish imkoniyatiga ko‘ra tanlangan” izohi bilan tugatadi. Chunki berilgan 13 bayt ketma-ketlikda, bir o‘rindan olingan emas. Biroq badiiy parchani o‘qiganda mazmuniy yaxlitlik mavjud. Ayniy tazkira, bayoz janrlarining talablarini chuqur anglagan hamda bu me‘yorlarga o‘zi ham rioya qilgan. Barcha parchalarning manbalarini aniq ko‘rsatgan. Masalan, “Az Davlatshohiy”, deya oldin manba berilib, keyin “Tuhfat ul-afkor”dan parcha keltirilgan. “Az “Bahoriston”-i Qomy” manbasi ostida esa Navoiyning uch forsiy ruboiysi berilgan. Ayniy forsiy she‘rda Navoiyning tili umuman sodda, ravon va tabiiyligini ilmiy isbotlaydi. Forsiy g‘azallarini oddiy suhbatda gapirayotganday mohirlik ila yozishi, uning forscha she‘rlarini (“Tuhfat ul-afkor” qasidasidan boshqalarini) nasrga aylantirish kerak bo‘lsa, so‘zlarni oldinma-keyin qilish kifoya ekanligi va tashqaridan boshqa biror so‘z keltirishga ehtiyoj tug‘ilmasligini ham ta‘kidlaydi.

Zullisonayn Sadridin Ayniyning so‘z tanlash salohiyati, jumla qurilishi ham alohida tadqiq mavzusidir. Masalan, Navoiyning Jomiy vafotiga yozgan marsiyasini Ayniy “tojik adabiyotidagi marsiyalarning eng jonso‘zlaridan biri”²⁴ – deydi. Qisqa ta‘rif, ammo birgina “jonso‘z” iborasi bahoning mukammalligini va yetarlicha ta‘sirini ta‘minlagan. Ayniy “jon o‘rtovchi, jonni qiynovchi” ma‘nosidagi forscha “jonso‘z”ni shoirning o‘z asarlaridan olganligi tabiiydir²⁵. Navoiy turli asarlarida bu so‘zga murojaat qilgan. “Lison ut-tayr”da o‘qiyimiz:

*Ishq olamso‘z erur, jonso‘z ham,
Shavq o‘tidin kufru imonso‘z ham*²⁶.

Ayniy tahlillarida mohiyatbinlik barobarida asarning shakliy tomonlarini o‘rganish ham muhim bo‘lgan. Navoiyshunoslik yo‘nalishlarining paydo bo‘lishida ba‘zi olimlarning hissasi ko‘p, Ayniy mana shunday olimlardan. Chunki u Navoiy asarlarining g‘oyasi, janriy tuzilishi, badiiy san‘atlari, matniy tomonlari, qo‘lyozma nusxalari haqida birday akademik uslubda izlanishlar olib boradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “Sadridin Ayniy – navoiyshunos” deya nomlanadi. Bobning “Alisher Navoiy” monografiyasida ilmiy tizim va ko‘lamdorlik” nomli birinchi faslida olimning “Alisher Navoiy” monografiyasida yoritilgan masalalar o‘z davri navoiyshunosligidagi izlanishlar bilan mushtaraklikda tahlil etilgan. Ayniy Alisher Navoiy hayoti, ijodi va shaxsiyatini keng miqyosda o‘rgandi va “Alisher Navoiy” nomli salmoqli monografiyasini yaratdi. 1948-yilda chop etilgan bu ilmiy tadqiqot Ayniyga katta shuhrat keltiradi, shu yili himoyasiz filologiya fanlari doktori ilmiy darajasi hamda professor ilmiy unvoni bilan munosib ravishda taqdirlanadi.

²² Хайитметов А. Забардаст навойишунос // Ўзбек тили ва адабиёти, 2003. № 5. – Б. 18

²³ Садриддин Айнӣ. Намунаи адабиёти тоҷик. – Душанбе: Адиб, 210. – С. 79

²⁴ Айнӣ С. Асарлар Саккиз томлик, саккизинчи том. – Тошкент: Бадий адабиёт, 1967. – Б. 29.

²⁵ Навоий асарлари лугати. Тузувчилар П. Шамсиев ва С. Иброҳимов. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1973.

²⁶ Аlisher Navoiy. Lison ut-tayr. MAT. 12-том. – Тошкент: Фан, 1996.

